

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

ABDURAXMONOV IXTIYOR BAXTIYOROVICH

**ALOUDDIN SAMARQANDIY “SHARH AT-TA’VILOT”
ASARINING TAFSIR ILMIDAGI AHAMIYATI**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of abstract of dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) on
islamic sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
исламоведческим наукам**

Abduraxmonov Ixtiyor Baxtiyorovich

Alouddin Samarqandiy “Sharh at-Ta’vilot” asarining tafsir ilmidagi
ahamiyati.....3

Abdurakhmonov Ikhtiyor Bakhtiyorovich

The significance of Alauddin Samarkandi's work “Sharh at-Ta’wilat” in the
science of tafsir.....21

Абдурахмонов Ихтиёр Бахтиёрович

Значение труда Алауддина Самарканди «Шарх ат-Тавилат» в науке
тафсир.....39

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ.....44

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

ABDURAXMONOV IXTIYOR BAXTIYOROVICH

**ALOIDDIN SAMARQANDIY “SHARH AT-TA’VILOT”
ASARINING TAFSIR ILMIDAGI AHAMIYATI**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**ISLOM SHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Isl51 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.iiu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxsudov Davronbek Rustamovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxamedov Ne‘matullo Asatullayevich
tarix fanlari doktori, dotsent

Inoyatov Azizxo‘ja Xayrulloevich
islomshunoslik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

Etakchi tashkilot:

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil ___-avgust soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (161-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil ___-iyulda tarqatildi.
(2024-yil 10-iyuldagi 08 raqamli reestr bayonnomasi).

I.I. Bekmirzaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, tarix fanlari bo‘yicha fan doktori, professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori, professor

Z.M. Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning turli mamlakatlarida yaratilgan yozma manbalar orasida Qur'on ma'nosini o'rganish va tafsir qilishga alohida e'tibor qaratilgan qator adabiyotlar mavjud. Bunday adabiyotlar orasida Movarounnahr hududida yozilgan asarlarning salmog'i katta ekanini ta'kidlash zarur. Moturidiylik ta'limoti vujudga kelgan ushbu zaminda ahli sunna e'tiqodi va ahamiyatini saqlash hamda keng yoyish jarayoni tafsirlarga ham kirib bordi. Abu Mansur Moturidiyning tafsirga oid "Ta'vilot al-Qur'on" va uning soddalashtirilgan sharhi "Sharh at-Ta'vilot"ning Alouddin Samarqandiy tomonidan yozilishi mintaqada tafsir ilmining keng tarqalishida keng ahamiyatga ega bo'ldi.

O'rta asrlarda musulmon mamlakatlarida Qur'onning yuzlab sharhlari yozilgan bo'lishiga qaramay, Movarounnahrda yaratilgan tafsirlar nafaqat Markaziy Osiyo, balki islom olamining bir qator diniy ta'lim muassasalarida o'qitilib, ilmiy markazlarda o'rganilib kelinayotganini ta'kidlash kerak. Bunday tadqiqotlar qatorida Movarounnahrda tafsir ilmining shakllanishi va rivojlanishi, aqliy tafsirlar va ularning o'ziga xos jihatlari, naqliy tafsirlardagi yondashuvlar, movarounnahrlik mufassir olimlar va ularning ilmiy merosi, Qur'on ilmlarining shakllanishi, Imom Moturidiy, Abul Lays Samarqandiy, Abu Hafs Nasafiy kabi olimlarning tafsir sohasidagi xizmatlariga doir tadqiqotlarni sanab o'tish kerak.

Yangilanayotgan O'zbekistonda islomshunoslik, jumladan, qur'onshunoslik va tafsirshunoslik tadqiqotlari rivojlanib bormoqda. Hukumat tomonidan bunday tadqiqotlar qo'llab-quvvatlanib, natijada, Imom Moturidiyning tafsirga bag'ishlangan "Ta'vilot al-Qur'on" asarining kompleks ilmiy-izohli tarjimai amalga oshirildi hamda Qur'onning 13 ta o'zbek tilidagi tarjimalari nashr etildi. Movarounnahrda yozilgan ilk aqliy tafsirlardan Imom Moturidiyning (vaf. 333/944 y.) "Ta'vilot al-Qur'on" ("Qur'on ta'villari") asari hamda Alouddin Samarqandiy (vaf. 539/1145 y.) tomonidan ushbu asarga yozilgan "Sharh at-Ta'vilot" ("Ta'vilot asari sharhi") asarlarini tahlil qilish bilan ularning tafsir uslublarini kengroq anglash, olimlarning faoliyatini chuqur tahlil qilish hamda tariximizning o'rganilmagan bosqichlarini yoritish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri, 2016-yil 14-sentyabrdagi 406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 11-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4802-son "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy,

iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Alouddin Samarqandiyning ilmiy-ma'naviy merosi bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, rus va xorijiy sharqshunoslar K.Brokkelman, A.Bebek, V.V.Bartold, A.E.Shmidt, I.P.Petrushevskiy, U.Rudolf¹ o'z tadqiqotlarida allomaning asarlariga qisman to'xtalib o'tgan.

Sharq olimlari orasida Bakr To'pal o'g'li, S.Kutlu, R.Onal, T.O'zdesh, Turki Ahmet, Fotima Yusuf Xaymiy va Majdiy Basallum² Alouddin Samarqandiy ilmiy merosidan tashqari uning hayoti hamda "Sharh at-Ta'vilot" asariga oid ma'lumotlarni ham taqdim etganlar. Xususan, Turkiy Ahmet o'z dissertatsiyasida asar haqida umumiy ma'lumotlarni keltirib, "Fotiha" surasi va "Baqara" surasining 24-oyatigacha bo'lgan qismining arab tilidagi tanqidiy matnini yaratgan.

Shuningdek, bu borada mahalliy islomshunos, sharqshunos va tarixchi olimlar M.Kamilov, A.Mansurov, U.Alimov, U.Uvatov, R.Obidov, D.Maxsudov, Sh.Ziyodov, A.Abdullaev³ o'z tadqiqotlarida Alouddin Samarqandiyning shaxsiyati, uning fiqh sohasidagi faoliyati, tafsiri, o'ziga xos uslub va manbalari, u yashagan davr mohiyati, "Ahli sunna val-jamoa"ning aqidaviy qarashlariga oid salmoqli ilmiy xulosalarni uchratish mumkin. Ayniqsa, M.Komilov "Sharh at-Ta'vilot" asari bo'yicha bir qator qimmatli ma'lumotlar keltirgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-202002144 – "Moturidiya ta'limotiga oid aqidaviy matnlarning akademik tarjima va sharhlari hamda ularning elektron kutubxonasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alouddin Samarqandiyning "Sharh at-Ta'vilot" asarining tafsir ilmidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

¹ Karl Brokkelman. Tarix at-turas al-arabiy. – Qohira: Dor al-maorif, 1959. – J. IV. – 378 b; Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Сочинения. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – Т. II. – С. 303; Adil Bebek. Matürldide günah problemi. – Istanbul: Bayrak, 1998. – 217 b; Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII – XV веках. – Ленинград: Издательство Ленинградского Университета, 1966. – 401 б; Ulrich Rudolf. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. Rus tilidan tarjima. - T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001.

² Talip Özdeş. Maturidi'nin tefsir anlayışı. – Istanbul.: İnsan yayınları, 2003.; Sönmez Kutlu. İmam Maturidi ve Maturidilik. – Ankara: Kitabiyat.; Fotima Yusuf al-Xaymiy.Ta'vilot ahl as-sunna. Bayrut: Muassasat ar-risalatunashirun, 2004.; Majdiy Basallum.Ta'vilot ahl as-sunna. – Bayrut.: Dar al-kutub al-ilmiya, 2005.; Türki Ahmet. Alâeddin es-Semerkandî'nin Şerhu't-Te'vilât adli eserinin tahkiki (Fatiha sûresi ve Bakara sûresinin 24. Ayetine kadar). – Diyarbakır. 2021.

³ Obidov R. O'rta Osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari.T.: TIU, 2009. – 68 b.; Shayx Abdulaziz Mansur. Aqoid matnlari. – T.: TIU, 2006. – 80 b.; M.Kamilov. Movarounnahrda fiqh ilmining rivoji va faqih Alouddin Samarqandiy. – T.: Istiqlol nashriyoti, 2006. – 208 b.; U.Alimov. IX–XI asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. – T.: Movarounnahr, 2008. – 192 b.; Uvatov U. Imom Moturidiy va uning ta'limoti. – Toshkent: Fan, 2000. – 48 b.; 105.Maxsudov D. Tafsir uslublari. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. – 223 b.; Ziyodov Sh. Abu Mansur al-Moturidiy yozma merosi va uning "Kitab at-Ta'vilot" asari // T.f.n. diss. ... avtorf. – T.: Sharqshunoslik . (O'zRFA ShI). 2003.; Abdullaev A. Abul Lays Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rni // T.f.n. diss..... – T.: TIU, 2007.

ta'vil turkumidagi asarlarni tadqiq etishdagi metodik yondashuvlar tahlilini amalga oshirish;

XI-XII asrlarda Movarounnahrda hanafiy-moturidiy tafsir maktabi rivojini ko'rsatib berish;

Alouddin Samarqandiyning tafsir ilmi hamda hanafiy-moturidiy tafsirshunosligida tutgan o'rnini belgilash;

“Sharh at-Ta'vilot” qo'lyozmalarini kodikologik tavsiflash va ularning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berish;

asarning Ta'vilot al-Qur'on'dan ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

Alouddin Samarqandiyning oyatlarni sharhlashdagi uslub va yondashuvlarini yoritish;

Alouddin Samarqandiyning “tafsir” va “ta'vil” tushunchalarini izohlashdagi yondashuvini ko'rsatib berish;

“Sharh at-Ta'vilot” asarida “Fotiha” surasining yoritilishidagi o'ziga xos uslubini asoslab berish;

asarning adashgan oqimlar g'oyalariga qarshi kurashda tutgan o'rnini belgilash hamda tadqiqot natijasida olingan xulosalardan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti Alouddin Samarqandiyning “Sharh at-Ta'vilot” asaridan iborat.

Tadqiqot predmetini Alouddin Samarqandiyning “Sharh at-Ta'vilot” asarining tafsir ilmidagi o'rnini ko'rsatib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning dialektika, tarixiylik, mantiqiylik, xronologik, kodikologik, tahlil va sintez, matnlarni kontent-analiz qilish va qiyoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Imom Moturidiy va Alouddin Samarqandiyning o'z tafsir asarlarini “ta'vilot” (تاويلات – oyatning ehtimoliy ma'nolaridan biri) deya nomlash orqali oyatlarning sharhlari aniq (التفسير) va ehtimoliy (التأويل) bo'lishi nazariyasini asoslab berganliklari aniqlangan;

Alouddin Samarqandiy “Fotiha” surasining tafsirida Imom Moturidiyning suraga oid qo'shimcha ma'lumotlarini e'tiqodiy masalalar, suraning fazilati, suraning ismlari va ularning ma'nolari hamda suraga aloqador bo'lgan hukmlardan iborat to'rt qismga ajratish orqali sharhlab bergani aniqlangan;

Alouddin Samarqandiy Qur'on oyatlarini tushunishda haqiqat va majozga keng to'xtalib, “Fath” surasi 4-oyatidagi “sakinatni tushurish”ni haqiqiy ma'nosida ifodalab, Alloh mo'minlarga taskinlik berishi ushbu amalni yaratishiga dalolat qiladi deya, mo'taziliylarga Xudoning barcha amallarni yaratuvchisi ekanligini isbotlash orqali raddiya bergani aniqlangan;

Alloma “Baqara” surasi 110 va “Ahqof” surasi 16-oyatlaridagi har bir katta va kichik amallarga savob berishi haqidagi mazmun bilan mo'taziliylarning katta gunoh qilgan inson do'zaxda abadiy qolishi haqidagi e'tiqodi asossiz ekanligi va

bunday tushunish bilan Allohga “yolgʻonchi”, “vaʼdasiga xilof qiluvchi” sifatlarining nisbat berilishi mumkinligini isbotlagani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Alouddin Samarqandiyning tafsirga oid asari “Sharh at-Taʼvilot”ning 12 ta qoʻlyozmasi aniqlanib, ular boʻyicha kodikologik tavsif amalga oshirildi hamda asarning “Taʼvilot al-Qurʼon” asaridan oʻzgacha uslubda kengroq, batafsilroq yozilgani misollar bilan isbotlangan;

OʻzR FA ShI qoʻlyozmalar fondida №3249, Saudiya Arabistonining Ummul quro universiteti kutubxonasi №10970 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan qoʻlyozma nusxalarning qiyosiy tadqiqi va kodikologik tavsifini amalga oshirish orqali “Sharh at-Taʼvilot” (شرح التاويلات) asarining hoshiyasi mavjudligi isbotlangan;

“Sharh at-Taʼvilot” asarida Imom Moturidiy keltirgan fikrlar, qarashlar toʻldirilgani, tushunarsiz iboralar yoritilgani, Qurʼon karimning “Fotiha” surasi tubdan yangi uslubda sharhlangani, qolaversa, Qurʼon soʻzlarini ifodalashda, oyatlarni sharhlashda oʻziga xos uslubdan foydalangani ochib berilgan;

“Sharh at-Taʼvilot” asarida yoritilgan tafsir ilmiga oid mavzular qatorida Alouddin Samarqandiyning mufassir sifatida “tafsir” va “taʼvil”ga bergan taʼrifi hamda adashgan oqimlarga bergan raddiyalardagi yondashuvlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot olib borishda Alouddin Samarqandiyning “Sharh at-Taʼvilot” asarining Saudiya Arabistoni, Hindiston, Turkiya, Oʻzbekiston kutubxonalarida saqlanayotgan qoʻlyozma nusxalariga tayanilgani, tadqiqot natijalarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlangani, shuningdek, ularning respublika va xalqaro ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplamlari, OAK roʻyxatidagi ilmiy nashrlarda chop etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida keltirilgan aksariyat maʼlumotlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgani, islom tarixi va manbashunosligida noyob qoʻlyozma asarlarini oʻrganish va tanqidiy matnini tayyorlash, tafsirshunoslikda muhim nazariy maʼlumotlarni bera olishi, yot gʻoyalaridan qaytmaganlarning daʼvolariga ilmiy raddiyalar berish boʻyicha muhim ilmiy-amaliy manba boʻlib hizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ilmiy jihatdan asoslangan maʼlumotlar, taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda Oʻzbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi oliy diniy taʼlim muassasalarida oʻtiladigan “Qurʼonshunoslik”, “Tafsirshunoslik”, “Islomshunoslikka kirish”, “Islom manbashunosligi” kabi oʻquv kurslarni oʻqitishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu dissertatsiyadan islomshunoslik, sharqshunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik sohalariga oid maʼruzalar, oʻquv-uslubiy qoʻllanma va dasturlarini tayyorlashda hamda shu soha vakillari bilan innovasion hamkorlik ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Alouddin Samarqandiy “Sharh at-Taʼvilot” asarining tafsir ilmidagi ahamiyati” mavzui boʻyicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

“Sharh at-ta’vilot” asarining manbashunoslik tahlili va unda oyatlarning yoritilishi”, “Sharh at-ta’vilot” asarining oyatlarni ta’vil va tafsir qilishdagi ahamiyati” va “Alouddin Samarqandiyning “tafsir” va “ta’vil” tushunchalarini izohlashdagi yondashuvi” deb nomlangan bo‘limlarida keltirilgan ishonchli ilmiy-nazariy xulosalari, taklif va tavsiyalaridan buyurtma asosida tayyorlangan “Islom ensiklopediyasi” kitobida foydalanilgan (Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2024-yil 11-iyundagi 04/1879-son ma’lumotnomasi). Natijada, ilmiy jamoatchilikning Alouddin Samarqandiy va kalom haqidagi bilimlarining oshishiga xizmat qilgan;

Alouddin Samarqandiy Fath surasi 4-oyatidagi “sakinatni tushurish” iborasini mo‘tazilalar “Alloh bandalarning fe’llarini yaratmaydi” degan da’volariga ko‘ra uni majoziy ma’noda, deb sharhlaganiga raddiya berib, ahli sunnaning e’tiqodiga ko‘ra, ushbu ibora haqiqiy ma’noda ekanini isbotlagani haqidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi “Ko‘kaldosh” va “Sayyid Muhyiddin maxdum” o‘rta maxsus islom ta’lim muassasalari uchun tayyorlangan “Moturidiya ta’limoti va uning bugungi kundagi ahamiyati” kitobida foydalanilgan (O‘zbekiston musulmonlari idorasining 2024-yil 31-maydagi 03/1385-son ma’lumotnomasi). Ilmiy izohlardan foydalanish orqali Imom Moturidiy tafsirining o‘zbek tilidagi nashrida suralar umumiy ma’nosi, ayniqsa, aqidaviy oyatlar, mutashobeh oyatlar tafsiri borasida to‘g‘ri tushuncha shakllanishiga, adashgan oqimlar tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinishi natijasida adashishning oldi olinishi hissa qo‘shilgan va kitobxonlarning aqida haqidagi tasavvurlarining kengayishiga xizmat qilgan;

Alouddin Samarqandiy Qur’on oyatlarini tushunishda haqiqat va majozga keng to‘xtalib, Fath surasi 4-oyatidagi “sakinatni tushurish”ni haqiqiy ma’nosida ifodalab, Alloh mo‘minlarga taskinlik berishi ushbu amalni yaratishiga dalolat qiladi deya, mo‘taziliylarga Xudoning barcha amallarni yaratuvchisi ekanligini isbotlash orkali raddiya berganiga doir ilmiy xulosalar “Tafsir ilmiga kirish” kitobi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 3-iyundagi 06-28-673-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamoatchilikning Alouddin Samarqandiyning hayoti, ilmiy merosi, “Sharh at-Ta’vilot” asari haqida yangi ma’lumot olishiga ko‘maklashishga xizmat qilgan;

Alloma Baqara surasi 110 va Ahqof 16-oyatlaridagi har bir katta va kichik amallarga savob berishi hakidagi mazmun bilan mo‘taziliylarning katta gunoh qilgan inson do‘zaxda abadiy qolishi haqidagi e’tiqodi asossiz ekanligi va bunday tushunish bilan Allohga “yolg‘onchi”, “va’dasiga xilof qiluvchi” sifatlarining nisbat berilishi mumkinligi haqidagi xulosalar Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining buyurtmasi asosida tayyorlangan “G‘uluvning xatarlari” nomli kitob mazmuniga singdirilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 31-maydagi 02/232-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya xulosalari, taklif va tavsiyalaridan Markaz faoliyati rivoji va ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjuman va konferensiyalarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tarafidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqola chop etilgan. Shuningdek, respublika va xalqaro konferensiya to‘plamlarida 7 ta tezis e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya xajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o‘rganish ob’ekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“XI-XII asrlarda Movarounnahr tafsir ilmini o‘rganishdagi uslublar”** deb nomlangan birinchi bobida ta’vil turkumidagi tafsirlar va ularni tadqiq etishdagi yondashuvlar, XI-XII asrlar Movarounnahr hanafiy-moturidiy tafsir maktabi rivoji, o’sha davrdagi siyosiy muhitining alloma ilmiy faoliyatiga ta’siri o‘rganilgan, mufassir hayoti va asarlariga oid tadqiqotlar tahlil qilingan hamda olim tafsirining uslubiy xususiyatlari ochib berilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi *“Ta’vil turkumidagi tafsirlarni tadqiq etishdagi yondashuvlar tahlili”* deb nomlanib, unda ta’vil janrida bitilgan tafsirlarning kelib chiqishi, ularning rivojlanish bosqichi, “tafsir” va “ta’vil” so‘zlarining ma’nosi va unga yaqin istelohlar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilgan. Shuningdek, aql va ijthod asosida qilingan tafsirlarning rivojlanish bosqichlari hamda naqliy tafsirlarning ahamiyati ham o‘rganilgan.

Manbalarning ko‘rsatishicha, asosan hijriy III-IV asrlardan boshlab ta’vil janridagi tafsirlar ko‘plab yozila boshlangan. Bu bir tomondan, o’sha paytda aqliy ilmlarning rivojlanganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, bahsli masalalarda aqliy misollardan ko‘p foydalanilganiga ishora qiladi. Demak, vaqt o‘tishi, turli sabablarning paydo bo‘lishi bilan Qur’onni naqldan tashqari aqlga asosan tafsir qilish ham davr talabiga aylangan. Tafsirning ushbu turida aql va ijthoddan keng foydalanilgani sababli u “aqliy tafsir”, “ijthodiy tafsir”, “diroya (ilmiy) tafsiri” kabi nomlar bilan atalgan.

Bu turdagi tafsirlar uslub, xususiyat va ulardagi ilmlarga qarab turli yo‘nalishlarga bo‘linadi. Ba’zilarida qiroat turlari, arab tili grammatikasi, boshqalarida aqida yoki aqliy qarashlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lib, ularning barchasi ruxsat etilgan aqliy tafsirlardan sanaladi.

Qur’oni karimni izohlashda qadimgi va keyingi olimlarning asarlarida “tafsir”,

“ta’vil” va “ma’no” kabi tushunchalar turlicha qo’llaniladi. Imom Moturidiy sahobiylarning oyatlarga bergan izohlarini “tafsir” deb nomlab, undan keyingi davrdagilarnikini esa “ta’vil” deb atagan. Keyincha tafsirshunoslik sohasida “ta’vil” atamasi “at-tafsir bir-ray”ga nisbatan ishlatiladigan bo’ldi. Ushbu ta’riflar zohiran turlicha bo’lsada, tadqiqotlar natijasida ahli sunna ulamolari ulardan bir ma’noni ko’zlangani ma’lum bo’ladi.

Bobning “*XI-XII asrlarda Movarounnahrda hanafiy-moturidiy tafsir maktabi rivoji*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida mufassir yashagan davrdagi ijtimoiy-ciyosiy jarayonlar va ularning alloma faoliyatiga ta’siri o’rganilgan. Alouddin Samarqandiy XI asrning ikkinchi yarmi – XII asrning birinchi yarmida yashagan. Bu davrda Xurosonda va xalifalikning kattagina sharqiy qismida saljuqiylar (429-485/1038-1092), Movarounnahrda qoraxoniylar (389-607/999-1212), G’aznaviylar (366-582/977-1186), xorazmshoh-anushteginiylar (470-628/1077-1231) hukmron edilar. Saljuqiylar o’z mavqelarini mustahkamlab borayotgan paytda Movarounnahr ilgariidek qoraxoniylar qo’lida qolaverdi.

Somoniylar hukmronligining (261-389/875–999) so’nggi davrida Movarounnahr va Xuroson o’lkalari qoraxoniylar va g’aznaviylar o’rtasida taqsimlab olinib boshladi. Somoniylar qulaganidan so’ng ko’p o’tmay bu mintaqada qoraxoniylar hukmronlikni to’liq qo’lga kiritdilar. Qoshg’ardan to Amudaryogacha bo’lgan hududni o’z ichiga olgan qoraxoniylar davlati keyinchalik ikki qismga: markazi Bolosog’un (keyinchalik Qoshg’ar) bo’lgan Sharqiy qoraxoniylar davlati va markazi O’zgan (keyinchalik Samarqand) bo’lgan G’arbiy Qoraxoniylar davlatiga bo’linib ketdi . Ular mamlakatni viloyatlarga bo’lib boshqarish tizimini amalga oshirdilar .

Movarounnahrda XI-XII asrlar ijtimoiy-ma’naviy muhit gullab yashnagan davr bo’lgan. Hanafiy mazhabi, moturidiy ta’limotida yozilgan ko’plab asarlar ushbu asrlarda rivoj topgan. Jumladan, ushbu asrlarda fiqh, hadis, kalom ilmi, tasavvuf hamda tafsir sohaslarida yozilgan asarlar Movarounnahrni mavqeini yanada yuksaltirdi.

XI-XII asrlarda ra’y bilan tafsir qilish mufassirning fikri Qur’on, sunnatga, sahobiylarning so’zlariga xilof bo’lmagan holda amalga oshirilgan. Qur’on va sunnat, sahobiylar so’zlari bo’lmish mo’tabar manbalarga xilof ravishda ra’y (ijtihad, fikr) bilan sharhlashga barcha davr olimlari qarshi bo’lganlar. Chunki, bunda ma’lum bir guruhlar, oqimlar Qur’on oyatlarining sharhini o’z g’oyalariga moslashtirishga harakat qilishlari mumkin.

Birinchi bobning “*Alouddin Samarqandiyning tafsir ilmidagi tutgan o’rni*” nomli uchinchi paragrafida allomaning tug’ilgan va vafot etgan sanasi, oilasi, kunyasi, ustoz va shogirdlari hamda asarlariga doir ma’lumotlar qiyosiy o’rganilgan. Jumladan, uning tafsir ilmi sohasida qoldirgan ilmiy merosi tadqiq etilgan. Allomaning tafsir sohasida yozgan “Sharh at-Ta’vilot” asari kalom ilmi asosida yozilgan. Bu kabi yo’nalishda boshqa tafsirlar tajribada ko’rilganligi sababli mazkur tafsir va kalom alohida ajratib o’tirilmadi (masalan, lug’aviy tafsirlar, mantiq va balog’at ilmi asosidagi tafsirlar, hadislar asosidagi tafsirlar va boshqalar). Balki har ikkisi bir guruhga kiritildi.

Alouddin Samarqandiyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, X asrda shuhrat topgan Moturidiy va uning asarlari, XI asrga kelib “unutilganday” bo‘ldi. XII asrga kelib, Samarqandiy va uning safdoshlari Moturidiyni “tikladi”, deyilsa xato bo‘lmaydi. Xullas, Abu Mansur Moturidiy va Alouddin Samarqandiy asarlarini chuqurroq tadqiq qilish, ilmiy o‘rganib chiqish, IX-XII asrlarda Movarounnahrda tafsir va kalom ilmi tarixining yangi-yangi qirralarini ochib beradi.

“Sharh at-Ta’vilot” asarini o‘qigan kishi uning kalom ilmi bo‘yicha ham yuksak maqomga etganligini bilishi mumkin. Olim aqidaviy masalalar bo‘yicha qarashlarida Imom Moturidiy izidan borgan. Shuningdek, u Qur’onni sharhlash uslubida ham Imom Moturidiydan ta’sirlangan. Yuqorida aytilganidek, Moturidiy Qur’onni sharhlashda o‘ziga xos yo‘l yaratib, asosan, oyatlarni sharhlashda tahliliy fikr yuritishga asoslanadi.

Alouddin Samarqandiy tafsirining kirish qismida Imom Moturidiyning asarini yuqori baholab, uning ba’zi tushunishga qiyin bo‘lgan joylarni engillashtirishni maqsad qilib sharh yozganini ma’lum qilgan. Shu bilan birga allomaning asarida boshqa mashhur tafsir asarlardagi kabi oyatma-oyat sharh berilganiga ko‘ra, uni faqat Moturidiy tafsirida tushunishi qiyin bo‘lgan joylarni sharhlash bilan chegaralanmay Qur’onning boshidan oyatma-oyat, aqidaviy masalalarga kelganda keng sharhlar berganini ko‘rish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Sharh at-Ta’vilot” asarining manbashunoslik tahlili va unda oyatlarning yoritilishi**” deb nomlangan ikkinchi bobida asarning qo‘lyozma nusxalari va ularning kodikologik tahlili o‘rganilgan, asarning o‘ziga xos jihatlari, muallifning oyatlarni sharhlashdagi uslubi ochib berilgan hamda “Ta’vilot al-Qur’on” va “Sharh at-Ta’vilot”dagi oyatlar izohi qiyosiy tahlil qilingan.

Bobning birinchi paragrafi *““Sharh at-Ta’vilot” qo‘lyozmalari kodikologik tavsifi”* deb nomlanib, unda “Sharh at-Ta’vilot”ning bugungi kungacha etib kelgan qo‘lyozma nusxalari qiyosiy o‘rganilgan. Dunyo kutubxona fondlarida “Sharh at-Ta’vilot” asarining 10 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari mavjud. Ushbu nusxalarning bir qismi to‘liq, bir qismi esa, ba’zi qismlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy ish davomida mazkur qo‘lyozmalardan 12 tasining elektron nusxalari jamlandi. Ulardan ikkitasida asar to‘liq ko‘chirilgan. Biri Sulaymoniya kutubxonasi Hamidiya fondidagi 176 raqamli qo‘lyozma, ikkinchisi To‘pqopi kutubxonasidagi 179 raqamli qo‘lyozma. Lekin Hamidiya nusxasida Kahf surasidan keyin “Ta’vilotu-l Qur’on”ning o‘zi bo‘lib, unda sharh mavjud emas. Qolgan nusxalar orasida bir qancha qiymatlilari mavjud bo‘lib, ularda asar to‘liq emas.

Bu qo‘lyozmalarning eng qadimiy nusxalaridan ikkitasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti fondida mavjud bo‘lib, 3249 va 3155 raqamlari ostida saqlanadi. Bularning har ikkisi ham Xoja Muhammad Porso kutubxonasidandir.

Asarning qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ulamolar tomonidan ushbu “Sharh at-Ta’vilot”ga hoshiyalar yozishga urinishlar bo‘lgan. Bunga nusxalar chetidagi izohlarni misol qilish mumkin. Ayniqsa, O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar asosiy fondida saqlanayotgan № 3249 raqamli nusxada Fotiha va Baqara suralari ba’zi chigal o‘rinlarga hoshiya bitilgan. Ushbu

hoshiya keyinchalik boshqa nosixlar tomonidan asar bilan birga ko‘chirilgan. Zero, Saudiya Arabistoni “Ummul quro” universiteti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan №10970 raqamli qo‘lyozmada aynan ushbu izoh va hoshiyalar mavjud. Mazkur hoshiyalar arab va fors tillarida yozilgan bo‘lib, asosan lug‘aviy jihatni yoritishga qaratilgan. Shuningdek, hoshiyada boshqa tafsir kitoblardan naqlarni ham uchratish mumkin. Misol uchun, Zamaxshariyning *Kashshofi*, shuningdek “Matla” asaridan naqlar mavjud.

Bundan “Sharh at-Ta’vilot”ning hoshiyasi ham mavjud degan xulosa qilish mumkin. Ushbu hoshiya muallifi O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar asosiy fondida saqlanayotgan №3249 raqamli nusxa kotibi Muhammad ibn Muslim ibn Mumin bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi bobning “*Asarning “Ta’vilot al-Qur’on” dan ajralib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlari*” deb nomlangan paragrafida “Sharh at-Ta’vilot” asarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Jumladan, Alouddin Samarqandiyning “Sharh at-Ta’vilot” asari Qur’oni karim tafsiri hamda moturidiy ta’limotini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Alloma ushbu sharhni yozishida Abul Mu’in Nasafiyning xizmati nihoyatda katta bo‘lgan. Chunki Alouddin Samarqandiyning o‘zi Nasafiy bilan Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” asarini birga mutolaa qilgani, lozim deb topgan joylarga sharh yozib ilova qilib borgani va keyinchalik ushbu sharhlarni alohida kitob holiga keltirganini ta’kidlaydi. U o‘z asarida Moturidiyning so‘zlarini sharhlash bilan bir qatorda o‘z fikrlarini ham bayon etgan. Olim o‘z tafsirida Muhammad (s.a.v.) hadislari, sahobiy va tobeiylar so‘zlarini jamlash bilan bir qatorda aqidaviy va fiqhiy masalalarni echishda hanafiylik an’analariga asoslangan fikrlarni ham keltiradi.

Ma’lumki, bir kitobning ahamiyati boshqa kitoblarga manba bo‘lib xizmat qilishi yoki manba bo‘lmasligi bilan farq qiladi. “Sharh at-Ta’vilot” asaridan ham ko‘plab mualliflar o‘z kitobida manba sifatida foydalangan. Jumladan, Abul-Barakot Nasafiyning (vaf. 710/1310) “Madorik at-Tanzil”⁴, Alouddin Buxoriyning (vaf. 730/1330), “Kashful-Asror Sharh Usul al-Pazdaviy”si, Husomuddin Sig‘noqiyning (vaf. 710/1310) “al-Kofi Sharh Usul al-Pazdaviy”si, Badriddin Ayniyning (vaf. 855/1451) “al-Binoya Sharh al-Hidoya”si, Shihobiddin al-Hafojining (vaf. 1069/1658) “Tafsir al-Bayzoviy”ga qilgan xoshiyasi⁵, mashhur hanafiy faqih Ibn Obidinning (vaf. 1252/1836) “Radd al-muhtor ala Durr al-muxtar”i va bulardan boshqa ko‘plab asarlarni misol qilib ko‘rsata olamiz.

Samarqandiy oyatlarni sharhlashda umimiy olganda Moturidiyning metod va uslubidan foydalangan. Shu bilan birga, “Sharh at-Ta’vilot”ning ko‘zga ko‘ringan ba’zi jihatlari ham mavjud.

“Sharh at-Ta’vilot”, Fotiha surasidan Nas surasigacha mus’haf tartibiga uyg‘un tartiblangan eng buyuk tafsirlardan biri hisoblanadi. Alouddin Samarqandiy, asarining boshlanishida Qur’oni karimni ra’y bilan tafsir qilishni hukmi hamda “tafsir” va “ta’vil” o‘rtasidagi farqni tushintirib, Fotiha surasining tafsiridan

⁴ Abul Barakot Nasafiy. *Madorik at-Tanzil*. – Bayrut: Dor al-kalim at-toyyib, 1998. – J.1. – B.166, 213, 233, 258, 318, 426; – J.3. – B.327, 541, 657.

⁵ Shihobiddin Hafojiy. *Hoshiya alal Bayzoviy*. – Bayrut: Dor Sodir. – J.1. – B. 360.

boshlagan.

Bobning *“Alouddin Samarqandiyning oyatlarni sharhlashdagi uslub va yondashuvlari”* deb atalgan uchinchi paragrafida Alouddin Samarqandiy *“Sharh at-Ta’vilot”* asarini yozishda tayangan uslublari hamda oyatlarni sharhlashda uning Imom Moturidiyning *“Ta’vilot al-Qur’on”* asaridan farqli jihatlari qiyosiy o‘rganilgan.

Alouddin Samarqandiy o‘zining *“Sharh at-Ta’vilot”* asarini ta’lif etishda Imom Moturidiyning *“Ta’vilot al-Qur’on”*i uslubiga umumiy ma’noda ergashgan. Biroq, u oyatlarni sharhlashda Moturidiy e’tibordan chetta qoldirgan jihatlarni yoritish, nomi zikr qilinmagan olimlarning ismini aytish, mavzuni davrlarga xoslash, masalalarning sabablarini bayon qilish, tushunarsiz iboralarni yoritish, mazhablardagi fihiy qarashlarni kengroq tushuntir kabilarga e’tibor qaratgan. Shuningdek, u oyatlarni lug‘aviy jihatdan tushuntirishga, matnda aytilmagan usul al-fiqh qoidalarini kiritganini kuzatish mumkin.

Alouddin Samarqandiy Imom Moturidiy yo‘liga yurib ba’zi o‘rinlarda raddiya so‘zini ochiq aytmaydi, balki ahli sunna e’tiqodini bayon qilgandan so‘ng, bu boradagi g‘alat qarashlarni bayon qiladi. Misol uchun G‘ofir surasida shunday deyiladi: *“Ishimni Allohning O‘ziga topshirdim”* (G‘ofir surasi, 44-oyat) oyati *“o‘z ishim borasida biror narsa bilan mashg‘ul bo‘lmayman, uni Alloh taolaga topshiraman”* degan ma’nodadir. Mo‘taziliylarning so‘ziga ko‘ra, Alloh taolaga havola qilish, ya’ni topshirish mumkin emas. Chunki ular: *“Bandaning barcha hojatini Alloh taolo berishi lozimdir va hatto Uning huzurida ziyoda narsa qolmaydi. Uning huzurida hech narsa qolmasa, Unga ishlarni topshirishning hech qanday ma’nosi qolmaydi”* deyishadi⁶.

Ba’zi o‘rinlarda Alouddin Samarqandiy Imom Moturidiyning so‘zini *“ba’zilar shunday deydi”* degan iboralar bilan keltiradi. U bilan go‘yoki bu mazkur fikrga qo‘shilmagan degan xulosa qilish mumkin. Misol uchun, imom Moturidiy *“Sod”* surasi tafsirida *“Biroq, mening nazdimda “Biz ulardan ilgari ham qancha asrlarni halok etganmiz” (Sod surasi, 3-oyat) oyati u (yuqoridagi qasam)ga javob bo‘ladi. Shunda uning ma’nosi qasamning javobiga kiradigan “lom” ila bo‘ladi. Lekin ushbu “lom” qasam orasiga “Ammo kufr keltirganlar kibru havo va muxoliflikdadirlar” (Sod surasi, 2-oyat) oyati tushgani uchun tushirib qoldiriladi, keyin u o‘z joyiga qaytariladi va qasamga javob bo‘ladi. Bu turdagi qasam kam uchraydigan, ajoyib va yashirindir”*⁷, deydi. Ayni shu o‘rinda Alouddin Samarqandiy mazkur iborani *“Ba’zilar shunday deydi...”* tarzida keltirgan⁸.

Shuningdek, Alouddin Samarqandiy oyatlarni lug‘aviy jihatdan ma’nolariga ham e’tibor qaratganini kuzatish mumkin. Jumladan, Sod surasi 3-oyati *“Ular (yordam so‘rab) nido qildilar. Ammo qochib qutulish vaqti emas edi”* tafsirida Imom Moturidiy keltirgan ma’nolarga nisbatan ushbu iborani qo‘shganini kuzatish mumkin: *“Abu Ubayda: “Bu so‘z najot va yordam ma’nosidadir. Ya’ni bu vaqt*

⁶ Imom Moturidiy. *Ta’vilot al-Qur’on* // Bosallum tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2005. J.9. B.33.

⁷ O‘sha manba. J.8. B.606.

⁸ Alouddin Samarqandiy. *Sharh at-Ta’vilot*. – Qo‘lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Hamidiya fondi № 176. – V.643a,b.

yordam va najot vaqti emas”, degan”⁹. Lekin bu ko‘p ehtimol bilan Moturidiyning so‘zi bo‘lishi mumkin. Garchi Ta‘vilotning bizgacha etib kelgan qo‘lyozmalarda ushbu jumla uchramasada, asl nusxalarida mavjud bo‘lish ehtimoli bor.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, “Ta‘vilot al-Qur‘on” asarining ba‘zi joylarida noqisliklar bo‘lib, ayni shu o‘rinlar “Sharh at-Ta‘vilot” orqali to‘ldiriladi. Misol uchun Fath surasidan uch oyat miqdoridagi tafsir tushib qolganini ko‘rish mumkin¹⁰. Ushbu farq turklar tomonidan nashr qilingan “Ta‘vilot al-Qur‘on” nusxasida to‘ldirilgan va izoh qismida uning “Sharh at-Ta‘vilot”dan olinganini¹¹ aytganlar. Bu kabi o‘rinlarda ushbu lafzlar Imom Moturidiyniki bo‘lishi ham ehtimoldan yiroq emas. Chunki bizgacha etib kelmagan “Ta‘vilot al-Qur‘on” nusxalarida bu ma‘lumotlar bo‘lishi mumkin. Chunki iboralarning bir biriga mutanosibligi ham ushbu ehtimolni quvvatlaydi. Bu esa keyinchalik matn va sharh biriga aralashib ketganlik ehtimolini kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning **“Sharh at-Ta‘vilot” asarining oyatlarni ta‘vil va tafsir qilishdagi ahamiyati**” deb nomlangan uchinchi bobida Alouddin Samarqandiyning “tafsir” va “ta‘vil” tushunchalarini izohlashdagi yondashuvi, ulamolarning ushbu atamalarga bergan ta‘riflari, “Sharh at-Ta‘vilot” asarida “Fotiha” surasining yoritilishi, Imom Moturidiyning oyatlarni sharhlashdagi uslubidan asarning farqli jihatlari tadqiq etilgan hamda asarning adashgan oqimlar g‘oyalariga qarshi kurashda tutgan o‘rni misollar orqali yoritib berilgan.

Bobning *“Alouddin Samarqandiyning “tafsir” va “ta‘vil” tushunchalarini izohlashdagi yondashuvi”* nomli birinchi paragrafida ushbu ikki atamaning ma‘nosi, muallifning ularni izohlashdagi qarashlari va boshqa bir qator olimlarning ushbu istelohlar borasida bergan ta‘riflari qiyosiy o‘rganilgan.

Ta‘vil va tafsir o‘rtasidagi farqni ko‘rsatishga ilk bor kirishgan olimlardan biri Imom Moturidiy tafsir ishini sahobiyga, ta‘vil ishini fuqahoga oid ekaniga ishora qilganidan so‘ng tafsir bir so‘zdan aslida nimani qasd qilinganiga qaratilganiga va bundan izohlash ra‘y asosida mumkin emasligini ma‘lum qiladi. Rasululloh (s.a.v.)ning “Qur‘onni kim o‘z ra‘yi bilan tafsir qilsa jahannamdagi o‘rniga tayyorlansin” ma‘nosidagi hadisi shariflari ushbu mazmunni quvvatlaydi. Imom Moturidiyga ko‘ra sahobiy, vahiyning nuzuliga guvoh bo‘lgan yagona avlod bo‘lgani uchun haqiqatda Allohning maqsadiga bog‘liq izoh berish (tafsir) salohiyatiga egalar. Ta‘vilning Allohga nisbatni mumkin bo‘lmaganidan ra‘y bilan tafsir tahdidi bu erdagi so‘z mavzusi emas¹². Sam‘oniyning fikricha, tafsir ochiq ma‘noning izohlanishi, ta‘vil esa ma‘noning aylanib bir nuqtaga borishi demakdir. Unga ko‘ra لا رَيْبَ فِيهِ “La royba fih” (Unda shak-shubha yo‘q) oyati¹³ning xuddi shu

⁹ Alouddin Samarqandiy. Sharh at-Ta‘vilot. – Qo‘lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Valiyuddin fondi №426. – B. 35b.

¹⁰ Qarang: Imom Moturidiy. Ta‘vilot al-Qur‘on // Bosallum tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2005. J.9. B.303. Imom Moturidiy. Ta‘vilot al-Qur‘on // Turk tadqiqotchilari tahqiqi. – Istanbul: Dor al-Miyzon, 2007. J.14. B.34.

¹¹ Alouddin Samarqandiy. Sharh at-Ta‘vilot. – Qo‘lyozma. Sulaymoniya kutubxonasi, Valiyuddin fondi №426. – V. 143a,b.

¹² Qarang: Al-Moturidiy. Ta‘vilot al-Qur‘on (Ibrohim Avadayn va Sayyid Avadayn nashri). – Qohira, 1971. – J: 1, - B. 3-4.

¹³ Baqara surasi, 2-oyat. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasini.

ma'nodagi "La shakka fih" so'zlari bilan izohlanishi tafsir hisoblanadi. Osim Afandi tafsir bilan ta'vilning farqini ifoda qilarkan, tafsirning oyatning nozil bo'lish sababini o'rganish va lug'aviy jihatdan kalomning o'rnini bayon qilish; ta'vilning esa oyatlarning sirlarini va kalimalarning astarini tahlil qilish bilan oyatning ehtimoliy (bo'lishi mumkin bo'lgan) ma'nolaridan birini ta'yin etishdan iborat ekanini aytadi.

Alouddin Samarqandiy tafsir va ta'vil borasida Abu Mansur Moturidiyning ushbu so'zlarini keltiradi. Unga ko'ra, tafsir yagona ehtimolli, ta'vil esa ko'p ehtimollidir. Bu tushuncha keyingi davrlarda ko'rilgan tafsir-ta'vil ajrimiga asos bo'lganini aytish mumkin.

Tilshunos va oldingi mufassirlardan iborat bir guruh ulamolar tafsir va ta'vil o'rtasida farq yo'qligini aytganlar, ammo ular ham hadis va ijmo o'rtasini muvofiqlashtirishda farqli bo'lganlar.

Alouddin Samarqandiy o'z asari muqaddimasida "ta'vil" va "tafsir" o'rtasidagi farqlarni Moturidiy keltirgan fikrlardan ancha batafsil va to'liq yoritgan. U ma'nosi chigallik tug'diradigan hadislarni ilmiy asosda tushuntirib bergan va bunga bir qator ulamolarning so'zlaridan iqtibos keltirgan. Shuningdek, "Kim Qur'onni o'z ra'yi bilan tafsir qilsa, do'zaxdan o'rnini hozirlayversin" hadisini noto'g'ri talqin qiluvchilar fikriga raddiya ham bergan.

Uchinchi bobning "*Sharh at-Ta'vilot*" asarida "*Fotiha*" surasining yoritilishi" deb nomlangan paragrafida Alouddin Samarqandiy va Imom Moturidiyning "Fotiha" surasi oyatlarini sharhlashdagi uslubi qiyosiy o'rganilgan va ular haqidagi ma'lumotlarning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Alloma "Sharh at-Ta'vilot"da "Ta'vilot al-Qur'on" asarining tushunish qiyin bo'lgan o'rinlariga sharh berib, mujmal so'zlarni oson so'zlar bilan izohlab sharh yozgan. Lekin Fotiha surasini tubdan yangi uslubda, boshqa iboralar bilan yoritgan. Misol uchun, Moturidiy "basmala"¹⁴ haqidagi ma'lumotlarni Fotiha surasining avvalida zikr qilgan bo'lsa, Alouddin Samarqandiy uni suraning oxirida keltirgan.

Alouddin Samarqandiy "Ta'vilot al-Qur'on"ning "Fotiha surasida keltirilgan ma'lumotlarni go'yoki tartibga solgan, tarqoq qarashlarni bir o'rinda keltirgan. Jumladan, u suraning oxirida Moturidiyning fikrlarini bir joyga to'plab, ularni tasniflagan. U "Ta'vilot al-Qur'on"ning Fotiha surasi tafsirida qo'shimcha keltirilgan ma'lumotlarni to'rt qismga ajratgan. Birinchisi, inson bilishga buyurilgan ilm va e'tiqod. Ikkinchisi, ushbu (Fotiha) suraning fazilati bayoni. Uchinchisi, ushbu suraning ismlari bayoni va uning ma'nolari. To'rtinchisi, bu suraga aloqador bo'lgan hukmlar bayoni.

